Tálim - tárbiya teoriyası hám metodikası

INGLIZ TILINI O‘QITIShDA NOVERBAL VOSITALARNING O‘RNI

Allanazarova Feruza Karimberdievna – *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
allanazarova1988@mail.ru
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

РОЛЬ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Алланазарова Феруза Каримбердиевна – *доктор философии по филологическим наукам, доцент*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE ROLE OF NON-VERBAL MEANS IN TEACHING ENGLISH

Allanazarova Feruza Karimberdievna – *Doctor of philosophy in Philological sciences, Associate Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: ovoz, intonatsiya, nutq, noverbal vosita, kommunikatsiya, muloqot, mimika, jest, signal, tana holati, qarash, proksemika, кronemika, paralingvistik vositalar, yuz ifodalari.

Rezyume. Maqolada Ingliz tili o‘qitishda noverbal vositalarning pedagogik ahamiyati o‘rganildi. Noverbal kommunikatsiya nafaqat o‘qituvchi tomonidan berilayotgan ma’lumotni tushuntirish va mustahkamlash vositasi, balki o‘quvchilarning hissiy holatini tushunish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va pedagogik muloqotni moslashtirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, noverbal signallar orqali o‘qituvchi talabalarning e’tiborini yo‘naltirishi, dars jarayonida ular bilan munosabatlarni optimallashtirishi va pedagogik maqsadlarga erishishni tezlashtirishi mumkin.

Ключевые слова: голос, интонация, речь, невербальные средства, коммуникация, диалог, выражение лица, жест, сигнал, положение тела, взгляд, проксемика, хронемика, паралингвистические средства, мимика.

Резюме. В статье рассматривается педагогическое значение невербальных средств при обучении английскому языку. Невербальная коммуникация служит не только инструментом разъяснения и закрепления информации, передаваемой преподавателем, но и эффективным механизмом понимания эмоционального состояния учащихся, выявления их потребностей и адаптации педагогического взаимодействия. Результаты исследований свидетельствуют о том, что с помощью невербальных сигналов преподаватель может управлять вниманием учащихся, оптимизировать взаимоотношения в ходе урока и ускорять достижение педагогических целей.

Key words: voice, intonation, speech, nonverbal means, communication, dialogue, facial expressions, gesture, signal, body position, gaze, proxemics, chronemics, paralinguistic means, facial expressions.

Summary. The article examines the pedagogical significance of non-verbal means in teaching English. Non-verbal communication serves not only as a tool for explaining and reinforcing information conveyed by the teacher but also as an effective mechanism for understanding students' emotional states, identifying their needs, and adapting pedagogical interaction. Research findings indicate that through non-verbal signals, a teacher can direct students' attention, optimize relationships during the lesson, and accelerate the achievement of pedagogical goals.

Kirish. Zamonaviy chet tilini o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv ustuvor o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv til o‘rganishni faqat grammatik bilimlarni egallash bilan emas, balki real muloqot sharoitida samarali kommunikatsiya olib borish qobiliyatini shakllantirish bilan bog‘laydi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini o‘qitishda noverbal vositalarning roli alohida ilmiy va metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki insonlararo muloqot jarayonida axborot faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki mimika, jestlar, tana harakati, ovoz ohangi, ko‘z qarashi va kommunikativ masofa kabi noverbal vositalar orqali ham uzatiladi.

Inson muloqot qilganida nafaqat og‘zaki ma’lumotlarni tinglaydi, balki birbirining ko‘zlariga qarashni, ovoz, intonatsiya, yuz ifodalari, imo-ishoralarni sezadi. So‘zlar orqali ma’lumotlar mantiqan ifodalansa, imo-ishoralar, yuz ifodalari, ovoz bu ma’lumotlarni to‘ldirib keladi, ma’nosiga ma’no qo‘shadi. XX asr oxirida noverbal muloqot qilish bo‘yicha yangi ilmiy-ijtimoiymutaxassis degan kasb turi paydo bo‘ldi. U insonlarning turli xil joy va vaziyatlardagi noverbal muloqotlarini, paralingvistik signallarni kuzatadi, masalan, ishda, ko‘chada, televideniyada va boshqalar. Bundan tashqari u odamlarning hatti-harakatlarini va xulq-atvorlarni ham o‘rganadi. Bu orqali u insonlarning o‘zaro munosabatlarini qanday yaxshilash mumkin ekanligi tog‘risida tadqiqot olib boradi. Shunday qilib, noverbal kommunikatsiyaning asosiy jihatlari faqat 60-yillarning boshidan jiddiy o‘rganilishni boshladi, ommaga esa 1970-yilda Yuliy Fast o‘zining kitobini e’lon qilganidan keyingina ma’lum bo‘ldi [6]. Ushbu kitobda 1970-yilgacha olimlar tomonidan qilingan noverbal muloqotning muhim jihatlari bo‘yicha tadqiqotlari sarhisob qilindi va ommaga taqdim etildi. Albert Meyerabian kuzatuvlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, inson ma’lumotlarni verbal vositalar yordamida 7% (faqat so‘zlar bilan), ovoz orqali (ovoz toni, intonatsiya) 38 foiz va noverbal vositalar yordamida esa 55 foiz bayon etadi [4].

Professor R.L.Berdvisllning tadqiqot natijasiga ko‘ra esa, bir kishi so‘z bilan kuniga o‘rtacha hisobda 10-11 daqiqa gapiradi va har bir jumla o‘rtacha 2,5 soniyadan oshmaydi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, verbal va noverbal vositalar insonlararo turli ma’lumotlarni uzatishda alohida, ba’zan birgalikda faol qo‘llanadi [1].

Asosiy bo‘lim. Noverbal kommunikatsiya ingliz tilini o‘qitish jarayonida nutqning semantik va pragmatik

mazmunini aniqlashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchi tomonidan ishlatilayotgan so‘z yoki iboraning kommunikativ ta’siri ko‘pincha uning qanday intonatsiya, yuz ifodasi yoki tana harakati bilan ifodalanganiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, oddiy “Could you help me?” iborasi samimiy intonatsiya va ochiq mimika bilan aytilganda iltimos sifatida qabul qilinadi, sovuq ohang bilan aytilganda esa rasmiy yoki hatto buyruq sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu sababli noverbal vositalar nutqning haqiqiy kommunikativ qiymatini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Noverbal muloqot- so‘zlar yordamisiz amalga oshiriladigan muloqot ko‘pincha ongsiz ravishda yuzaga keladi. U verbal muloqotni to‘ldirib va kuchaytirib kelishi yoki aksincha, unga zid bo‘lishi va susaytirib kelishi mumkin. Noverbal muloqot ongsiz jarayon hisoblansa-da, bugungi kunda u yetarlicha o‘rganilmoqda va bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishilmoqdda. Paralingvistik aloqa almashinuvimuloqotning eng qadimiy va fundamental shakli hisoblanadi. Ota-bobolarimiz bir-birlari bilan ko‘pincha tana harakatlari, yuz ifodalari, ovozning tembri va intonatsiyasi, nafas olish tezligi, qarashlar yordamida aloqa qilishgan. Biz ham hozir bir-birimizni so‘zsiz tushuna olamiz. Noverbal til shu qadar kuchli va umumiyki, biz ko‘pincha itni ham u nimani xohlashini osongina tushuna olamiz. It esa ko‘p harakatlarimizni anglay oladi, masalan, qachon u bilan sayrga chiqishni, qachon usiz tashqariga chiqishimizni ham oldindan biladi. Paralingvistik muloqot verbal muloqot kabi yuqori darajada tuzilgan sistemaga ega emas. Imo-ishoralar, yuz ifodalari, intonatsiyalarning umumiy qabul qilingan lug‘atlari va tartib qoidalari (grammatikasi) yo‘q. Paraverbal tilning bir qismi universaldir: barcha chaqaloqlar bir xil tarzda yig‘laydilar va kuladilar. Boshqa qismi, masalan, imo-ishoralar, madaniyatdan madaniyatga farq qiladi. Noverbal muloqot odatda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Biz odatda o‘z fikrlarimizni so‘zlar shaklida shakllantiramiz, lekin bizning ongimizdan tashqari, bizning holatimiz, yuz ifodalarimiz va imo-ishoralarimiz ham beixtiyor ifoda kasb etadi, ya’ni: “Siz so‘z bilan aldashingiz mumkin, lekin ovozingiz bilan alday olmaysiz!” Har bir inson paralingvistik muloqotning ba’zi parametrlarini boshqarishi mumkin. Ammo barcha parametrlarni nazorat qilish hech qachon mumkin emas, chunki odam bir vaqtning o‘zida 5-7 tadan ko‘p bo‘lmagan omillarni yodda tutishi mumkin. Emotsiya va his-tuyg‘ularni so‘zsiz yetkazish mumkin. Paraverbal til ham og‘zaki muloqotda qo‘llanadi. Uning yordami bilan:

- og‘zaki uzatilgan ma’lumotlarni tasdiqlash, tushuntirish yoki rad etish;
- ongli yoki ongsiz ravishda axborotni uzatish;
- emotsiya va his-tuyg‘ularni ifoda etish;
- suhbatning borishini tartibga solish;
- boshqa shaxslarni nazorat qilish va ta’sir qilish;
- so‘zlarning yetishmasligini to‘ldirish mumkin (masalan, velosiped haydashni o‘rganayotganda).

Hamkor bilan suhbatlashganda, biz uning yuz ifodalarini, suhbatdoshimiz haqiqatan ham nimani o‘ylashini va his qilishini aytadigan imo-ishoralarini ko‘ramiz. Shunday qilib, o‘tirgan suhbatdosh oldinga egilib, o‘zi gapirmoqchi ekanligini aytadi. Orqaga suyanib, u allaqachon bizni tinglamoqchi. Oldinga egilgan iyak kuchli irodali bosimdan, o‘z manfaatlariga qat’iy rioya qilish istagidan dalolat beradi. Agar iyak ko‘tarilgan bo‘lsa va bosh to‘g‘ri bo‘lsa, unda sherik o‘zini kuchli holatda deb hisoblaydi. Mutaxassis sifatida tinglovchilar oldida so‘z yuritar ekanmiz, barkamol, o‘ziga ishongan mutaxassis obrazini uyg‘otishimiz kerak. Aks holda fikrimizga hech kim ishonmaydi. Bundan tashqari, tinglovchilar nutqimizning dastlabki soniyalarida biz haqimizda o‘z taassurotlarini qoldiradilar. Shu sababli, noverbal tilimizni boshqarish qobiliyati biz xohlagan tasvirni uyg‘otishga yordam bu til bizga sherik haqida aniqroq va adekvat fikrni shakllantirishga yordam beradi. Demak, muloqotning paralingvistik komponentlari: imo-ishoralar, ko‘z ifodasi, yuz ifodalari, tana harakati – bularning barchasi kinesika tomonidan o‘rganiladi (yunoncha kinesis – "harakat"). Kinesika mimika va imo-ishoralarga alohida e’tibor beradi. Mimikalar (yunoncha. mimikos – "taqlid") – yuz ifodasi (ko‘zlar, qoshlar, lablar). Mimik vositalar deganda yuz mushaklarining harakatlari va boshning harakatlari tushuniladi. Bu harakatlarni ko‘rsatadigan an’anaviy belgilar (boshni qimirlatish) – boshni ma’lum bir tomonga burish. Mimika orqali o‘qituvchi histuyg‘ularni yetkazadi, fikrni ta’kidlaydi (qoshlarini burish, tabassum qilish), sinfda muayyan bir holatni keltirib chiqaradi, tovush ritmini tartiblaydi, boshini egish noaniqlik, ikkilanish, yangi so‘z izlashni ifodalaydi. Noverbal muloqot asoschilari Charli Chaplin va boshqa so‘zsiz kino aktyorlaridir. Mimika, harakatlar, vegetativ ko‘rinishlar ("qizarmoq", "oqarib ketmoq", "terlamoq"), ko‘zlarning ifodasi, ko‘z qorachig‘ining kattaligi bo‘yicha biz insonning his-tuyg‘ularini baholaymiz. Eng aniq his-tuyg‘ular yuzda va turli xil pozalarda (zavq, qoniqish, qo‘rquv, dahshatni ifodalash) namoyon bo‘ladi. Amerikalik psixolog R.Vudvort yuz ifodalarini olti turga ajratdi:

1) sevgi, baxt, quvonch, zavq;
2) ajablanish;
3) qo‘rquv, azoblanish;
4) g‘azab, qat’iyat;
5) jirkanish;
6) nafrat [5].

Odatda his-tuyg‘ular yuz ifodalari bilan bog‘liq: – ajablanish – ko‘tarilgan qoshlar, keng ochilgan ko‘z qorachiqlari, pastga tushgan lablar, qiya ochilgan og‘iz; – qo‘rquv – qoshlar ko‘tarilgan va burun ko‘prigi ustida birlashtirilgan, ko‘zlar keng ochilgan, lablar burchaklari tushirilgan va biroz orqaga tortilgan, lablar yon tomonlarga cho‘zilgan, og‘iz ochiq bo‘lishi mumkin; – g‘azab – qoshlar tushiriladi, burun burishadi, pastki lab tashqariga chiqadi yoki ko‘tariladi va yuqori lab bilan yopiladi; – qayg‘u – qoshlar kichrayadi, ko‘zlar so‘nadi, lablar burchaklari biroz pastga tushadi; – baxt – ko‘zlar xotirjam, lablar burchaklari ko‘tariladi va odatda orqaga yotqiziladi. Muloqotning noverbal tarkibiy qismlari quyidagi funksiyalarda namoyon bo‘ladi: a) xabarning nutqiy qismiga hamrohlik ("... chuqur nafas olib javob berdi: "Qanday yaxshi!"); b) qarama-qarshi ma’no anglatganda (yolg‘on ohang, "ko‘zdan ko‘rinib turibdiki, bunday emas edi"). Shu yerda ushbu aforizmni keltirib o‘tish joiz: «Agar siz insonning hissiy holati haqida haqiqatni bilmoqchi bo‘lsangiz, uning yuziga qarang».

Ingliz tilini o‘qitishda noverbal vositalar pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Pragmatik kompetensiya til birliklaridan muayyan ijtimoiy va madaniy kontekstga mos holda foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ko‘pincha o‘quvchilar grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzgan bo‘lsalar ham, noverbal signallarni

noto‘g‘ri qo‘llash natijasida kommunikativ xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Masalan, ingliz kommunikativ madaniyatida bevosita ko‘z bilan aloqa o‘rnatish ishonch belgisi sifatida talqin qilinadi. Bunday aloqaning yo‘qligi esa suhbatdosh tomonidan befarqlik yoki ishonchsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin [2].

Shuningdek, noverbal vositalar madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Har bir madaniyat o‘ziga xos noverbal xulq-atvor tizimiga ega. Ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyatlarda kommunikativ masofa, jestlar yoki tana harakatlari boshqa madaniy muhitdan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu borada Edward T.Hall tomonidan ishlab chiqilgan proksemika nazariyasi shaxslararo masofa va makonning kommunikativ ahamiyatini tushuntirib beradi [3]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, kommunikativ masofani noto‘g‘ri tanlash madaniyatlararo tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Noverbal kommunikatsiya ingliz tilini o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. O‘qituvchining mimikasi, jestlari yoki intonatsiyasi yangi til materialini tushuntirish jarayonida qo‘shimcha semantik signal vazifasini bajaradi. Bu esa o‘quvchilarning yangi ma’lumotni tezroq anglashiga, uni kontekstda tushunishiga va eslab qolishiga yordam beradi. Shu bilan birga, noverbal vositalardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jamlash va o‘quv jarayoniga faol jalb etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, noverbal vositalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining samimiy yuz ifodasi, ochiq tana holati yoki qo‘llab-quvvatlovchi intonatsiyasi o‘quvchilarda ishonch hissini shakllantiradi. Bu esa o‘quvchilarning muloqotga kirishishdan qo‘rqmasliklariga va faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi.

Noverbal kommunikatsiya o‘quvchilarning nutq faoliyatini tabiiylashtirishga ham xizmat qiladi. Til o‘rganish jarayonida faqat verbal birliklarga e’tibor qaratish nutqni sun’iy va formal ko‘rinishga olib kelishi mumkin. Noverbal vositalar esa nutqni jonlantiradi, unga emotsional rang beradi va uni real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitishda noverbal vositalar kommunikativ aniqlikni ta’minlash, pragmatik va interkultural kompetensiyani rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli zamonaviy til o‘qitish metodikasida noverbal kommunikatsiyani o‘rgatish tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

Adabiyotlar

1. Birdwhistell R.L. Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching. // Applied Linguistics, № 1, 1980. – P. 1-47.
3. Hall E.T. The Hidden Dimension. – New York: «Doubleday», 1966.
4. Mehrabian A. Nonverbal Communication. – Chicago: «Aldine-Atherton», 1972.
5. Woodworth R.S. Experimental psychology. – New York: Columbia university, 1954.
6. Julius Fast. Body language. – New York: M.Evans and Co., Inc., 1970.